

## MAQOLA

O'ZBEKISTON – FRANSIYA MUNOSABATLARINING  
TARIXIY ILDIZLARI*Tillayeva Nodira*

**Annotatsiya:** Maqolada mustaqil O'zbekiston Respublikasi bilan Fransiya Respublikasi o'rtaqidagi diplomatik aloqalar tarixi haqida bayon etiladi. Shuningdek, maqolada ikki davlat o'rtaqidagi aloqalar o'rtasida asrlarga borib taqalishi, bu jarayonning ildizi Amir Temur va Fransiya qiroli o'rtaqidagi o'zaro elchilar almashinuvidan boshlanishi keltirib o'tiladi. Shuningdek, O'zbekistonning mustaqillikka erishgandan keyingi aloqalari tahlil etiladi.

**Kalit so'zlar:** Amir Temur, Karl VI, diplomatiya, Konstantinopol, Mitteran, Parij, "Zafarnoma", Kichik Osiyo, Boyazid Yildirim.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritgandan so'ng qator sohalarda tub islohotlar davrini boshladi. Xususan tashqi faoliyatni rivojlantirish uchun ko'plab halqaro tashkilotlar va davlatlar bilan o'z hamkorligini boshladi.

Ozbekistonning xalqaro munosabatlarda ochiq va amaliy, faol tashqi siyosat olib borilayotgani tufayli ishonchli hamkor sifatida mamlakatimizning xalqaro obro'si tobora ortib bormoqda<sup>1</sup>.

O'zbekiston Respublikasining Fransiya bilan diplomatik aloqalarining o'rnatilishi tashqi siyosatdagi muhim ishlaridan biridir, chunki Fransiya Yevropa hamda jahonning iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan eng rivolangan davlatlaridan biri hisoblanadi. Tabiiyki Fransiya bilan O'zbekiston Respublikasi turli sohalarda hamkorlik qilishi faqatgina Respublikamizning taraqqiyoti uchun xizmat qiladi.

Jahon tarixida Fransiya bilan do'stona munosabatlarimiz teran ildizlarga ega ekanini ifoda etuvchi ma'lumotlar ko'p uchraydi. Ayniqsa bu do'stlik aloqalarining rivojida Amir Temurning roli katta hisoblanadi. Fransuz tarixchilari Amir Temuning jahon tarixida tutgan o'rni haqida ko'plab fikrlar bildirishgan. «Amir Temurga teng keladiganlar kam topiladi, Temurdan o'tadiganlar esa, topilmasa kerak. Uning nomi Iskandar, Doro, Sezar, Chingizzon, Bonopartlar bilan yonma-yon turadi<sup>2</sup>». Yuqoridagi fikrdan ko'rinish turadiki Amir Temur haqida yevropaliklar ham turli tadqiqot ishlarini olib borishgan. «Taniqli fransuz olimlari L.Karen "Tamerlan yoxud Sohibqiron sultanati" (Nyushatel, Shvetsariya, 1978) va J.P.Pu "Tamerlan" (Parij, 1994) nomli kitoblarida har biri Amir Temur haqidagi 100 dan ortiq asarlar ro'yxatini keltirgan bo'lsalar, "Ulug'bek-astronomiya sultonii" (Parij, 1994) nomli to'plamda 40 ta asar,

<sup>1</sup> Sh.M.Mirziyoyev Oliy majlisga murojaatnomasidan. Toshkent 2020 yil

<sup>2</sup> Jean-Paul Roux TAMERLAN. Paris 1994 p. 24

“Samarqand 1400-1500: Tamerlan poytaxti: sultanat va Uyg'onish yuragi” (Parij, 1994) nomli asarda-27 kitob haqida ma'lumot berilgan<sup>3</sup>».

O'z navbatida fransuz olimlari Amir Temur haqida asarlar yozish bilan chekdanib qolmasdan Amir Temur haqidagi sharq tarixchilari tomonidan yozilgan asarlar tarjimasi bilan ham shug'ullanishgan. Misol uchun: «Sharofiddin Ali Yazdiy “Zafarnoma”sining F.Peti de Krua tarjimasi (Parij, 1722), Ibn Arabshohning “Ajoyib al maqdur fi tarixi Taymur” asarining “Buyuk Tamerlan” nomi bilan B.Bat'e tarjimasi (Parij, 1658), Abulg'oziy Bahodirxonning “Mo'g'ullar va tatarlar sulolasini tarixi”ning Baron Demezon tarjimasi (Layden, 1726), Abdurazzoq Samarqandiyning “Ikki saodatli yulduzning chiqishi va ikki dengizning qo'shilish o'rni” asarining A.Gallan tarjimasi (Parij, 1715), Ibn Xaldun “Tarjimai holi”ning B. de Slan tarjimasi (Parij, 1852), Ibn Battuta “Sayohatlari”ning S. Defremeri va B.Sanginetti tarjimasi (Parij, 1853), Mirzo Ulug'bek “Ziji Ko'ragoni”sining E. Sedilo tarjimasi (Parij, 1853), Mirxondning “Sosoniylar tarixi” asarining M. Defremeri tarjimasi (Parij, 1845) va boshqa asarlar<sup>4</sup>» shular jumlasidandir.

Yuqoridagi asarlarlar orqali Amir Temur shaxsi va uning faoliyati haqida yevropaliklar ko'plab ma'lumotlarga ega bo'lishgan hamda yuqoridagi asarlarni Yevropada Temurshunoslikning rivojiga asos sifatida qarashimiz mumkin.

G'arb mamlakatlari, xususan Fransiyaning Sohibqiron bilan do'stlik aloqalarini o'rnatishiga o'sha davr siyosiy vaziyati ahamiyatlidir. XIV asr o'rtalarida Buyuk Ipak yo'lining g'arb mamlakatlariga olib boruvchi tarmog'i turli nizolar tufayli inqirozga uchragan edi. O'sha davrda Amir Temur turli sohalarda qit'alararo aloqalar tiklanishiga sharoit yaratib berdi. Sohibqiron Amir Temur dunyoning zamondosh hukmdorlarining e'tiborini o'ziga jalb etibgina qolmay, balki jahon siyosiy hayotiga ham ta'sir ko`rsatdi. Ma'lumki, bu davrda, bir tomondan, sulton Boyazidning Bolqon yarim oroli davlatlariga nisbatan tazyiqi kuchayib, butun Yevropaga xavf solayotgan edi. Ikkinci tomondan, Boyazidning o`zi g`arbga tomon shiddat bilan siljib borayotgan xavfli raqib - Amir Temurning kuchli tazyiqiga duchor bo`lgan edi. Bunday siyosiy vaziyatda Boyazidga qarshi kuchlarning ma'lum darajada birlashushi tabiiy edi.

Avvalambor Boyaziddan yengilib, o`z yer va mulklaridan mahrum bo`lgan Kichik Osiyo mamlakatlarining hukmdorlari Amir Temurdan madad istab, uning Qorabog`dagi o`rdagohiga borib, qaror topadilar. Hatto Vizantiya va g`alatadagi Genuya hokimining noibi, Fransiya qiroli hamda Sultoniya shahrining katolik missionerlari yordam so`rab Amir Temurga murojaat qildilar. Buning evaziga ular harbiy yurish vaqtida unga yordam berish hamda Konstantinopol va Peraning Boyazidga to`lab kelgan bojini bundan buyon Amir Temurga to`lashga va'da qildilar. Bunday taklif Amir Temurga maqbul tushadi. Chunki Turkiyaning dengiz sohilidagi

<sup>3</sup> L.Karen, A.Saidov «Amir Temur va Fransiya» Toshkent.: Adolat 1996 yil 24-bet

<sup>4</sup> L.Karen, A.Saidov «Amir Temur va Fransiya» Toshkent.: Adolat 1996 yil 28-bet

tayanchidan ajratish uchun unga dengizdan madad zarur edi. Shunday qilib, XIV asr oxiri va XV asr boshlarida sulton Boyazidga zarba berish uchun qulay siyosiy vaziyat vujudga keladi. Bu vaziyatdan Amir Temur ustalik bilan foydalanadi. Bu davrda Amir Temur Boyazid bilan o`zaro diplomatik yozishmalar olib borish bilan bir qatorda, bo`lajak to`qnashuvda Trapezund va Konstantinopolning harbiy kemalaridan foydalanishga harakat qiladi. Shu maqsadda u Genuya va Venetsiyaga sovg`a-salomlar hamda maktublar bilan elchilar yuboradi. O`zaro yordam masalasida Amir Temur Konstantinopol noibi loann VII Paleolog bilan ham yozishmalar olib boradi. Amir Temurning 1402-yil, 15-may kuni loann VII Paleolog nomiga yo`llagan xatining mazmuniga qaraganda, Konstantinopol noibi va Genuyaning Peradagi hokimi Boyazidga qarshi kurashda Amir Temurga xizmat qilish, hatto unga odamlar va har qaysisi 20 ta dan 40 ta harbiy kemalar bilan yordam berish majburiyatini o`z zimmalariga oladilar. Buni Ispaniya elchisi Klavixo ham o`z kundalik daftarida qayd qilib o`tadi.

«Anqara uchun bo`gan jangda Temurbek ovrupalik va vizantiyaliklarni bu nizoga aralashmaslikka qat’iy chaqirgan. Buning evaziga ularni muhofaza etishga va’da qilgan. G’alaba qozonilgandan keyin Temur o’z va’dasida turib, Boyazida tutib turgan nasroniyarlarni tutqunlikdan ozod etgan va Ovporadagi yirik mamkalatlar va Vizantiya daxlsizligini tan olgan. U Fransiya, Angliya, Venetsiya, Genuyaga erkin savdo va mol almashishni taklif qilgan. Shunday qilib, u o’z yurtining Ovrupo bilan yaqin qo’shnichilik qilish va hozirda “Buyuk ipak yo’li” deb ataladigan savdo yo’llarini ravnaq toptirish niyati borligini ko’rsatgan. Fransiya qirolining javobidan, masalan, uning xati yaxshi kutib olinganligi ko’rinib turadi. Temur vafoti o’sha davr uchun juda ilg’or g’oyali bu rejani uzib qo’ygan<sup>5</sup>»

«Buyuk jahongir va muzaffar hazrati Amir Temur bobomiz-olamshumul tarixiy shaxs. Mana olti asrdan beri ul zotning ismi sharifi xalqlarning tillaridan, adiblar kitoblarining sahifalaridan tushmay keladi. Amir Temurni hayot chog’idayoq Iskandari soniy deb atay boshlagan edilar. Uni o’z davrini Ovrupadagi Fransiya, Angliya, Kastiliya, Vizantiya, Venetsiya va boshqa davlatlarning qirollari uning bilan yozishmalar olib borganlar<sup>6</sup>».

Bu davrda Amir Temur Fransiya qiroli Karl VI (1380-1422), Angliya qiroli Genrix IV (1399-1413), Kastiliya va Leon qiroli Genrix in de Trastamara (1390-1407) lar bilan diplomatik aloqalar o`rnatib, yozishmalar olib boradi. Fransiya fuqarolari hisoblangan genuyaliklarning yer va mulkclarini, ayniqsa g`alatadagi mustamlakalarini himoya qilish uchun Karl VI o`z navbatida Amir Temurdan madad kutar va u bilan diplomatik aloqalar o`rnatishga urinar edi.

<sup>5</sup> L.Karen, A.Saidov «Amir Temur va Fransiya» Toshkent.: Adolat 1996 yil 71-bet

<sup>6</sup> L.Karen, A.Saidov «Amir Temur va Fransiya» Toshkent.: Adolat 1996 yil 20-bet

Sohibqironning Yevropa qirollari bilan olib borgan muloqotlari orasida, ayniqsa, Fransiya qiroli Karl VI bilan yozishmalari alohida tarixiy ahamiyatga ega. 1394 va 1399 yillarda Amir Temur huzuriga kelgan Vizantiya imperatorining Konstantinopoldagi muovini Fransuaga Sandro ismli vakil hamroh bo‘lgan. Sandroning qo‘lida Genuyaning homiysi bo‘lgan Fransiya qirolining Amir Temur nomiga yozilgan maktubi bor edi. 1402 yilda Karl VI Amir Temur bilan mustahkam siyosiy aloqalarni o‘rnatishga intildi.

Hozirgi kunda Fransyaning Milliy arxivida 4 xat saqlanmoqda.

Birinchisi, Amir Temurning Fransiya qiroli Sharl IV ga fors tilida yozilgan xatinning asl nusxasi;

Ikkinchisi, shu xatning arxiyepiskop Ioaanning o’zi yoki uning biron zamondoshi lotin tiliga tarjima qilgan nusxasi;

Uchunchisi, Fransiya qiroli Sharl IV ning Amir Temurga lotin tilida yozgan xatinning nusxasi;

To’rtinchisi, Mirzo Mironshohning uch nasroniy qirolga yo’llagan xatinning lotin tiliga tarjima qilingan nusxasi. Uning asl nusxasini Ioaan o’zida saqlagan keyinchalik Angliya qiroliga ko’rsatgan<sup>7</sup>.

1402 yilda Karl VI Amir Temur bilan mustahkam siyosiy aloqalarni o‘rnatishga intildi. Ular yozishmalarining bir qismi Fransiya hujjat arxivida saqlanadi. Mazukur maktublarda Amir Temur qirolining sharqqa nisbatan siyosatini qo’llab quvvatlagan holda , o’z davlati bilan Fransiya o’rtasidagi savdo-sotiqt yo’lga qo’yilishining ahamiyatiga e’tibor qaratadi: «Bizning u ulug’ amirdan kutganimiz shuldurki, doimo bizga shohona maktublarni yuborib, salomatliklarini bildirib tursalar, toki biz xotirjam bo’lgaymiz. Yana sizning savdogarlaringiz bu tarafga qatnab yursalar, biz bu yerda ularni azizu mukarram tutg’umizdir, shuningdek, bizning savdogarlar u tarafga yuborilsa siz ham ularni azizu mukarram tutsangiz, hech kim ularga zo’rlik qilmasa va zarar zahmat yetkazmasa! Chunki dunyo savdogarlar bilan oboddir!»<sup>8</sup>

Yuqoridagi maktubdan ko’rinib turibdiki, Sohibqiron nafaqat sharqda balki g’arbda ham katta nufuzga ega. Aloqalarni yanada mustahkamlash maqasadida Karl VI savdo aloqalarini kengaytirish yolini izladi. Amir Temur va Karl VI yozishmalarida qayd etilishicha, Sohibqiron qirolni jiddiy qo’llab quvvatlaydi. Anqara yaqinida turklarning 160 ming kishilik qo’shini ustidan qozonilgan buyuk g`alabadan so`ng Amir Temuraing g`arbiy Yevropa davlatiari bilan bo‘lgan aloqalarining mazmuni tubdan o`zgaradi. Endilikda Amir Temur ular bilan do`stona munosabatlarni mustahkamlash va o`zaro savdo-sotiqt aloqalarini yo’lga qo’yish kabi masalalarga ahamiyat beradi.

<sup>7</sup> L.Karen, A.Saidov «Amir Temur va Fransiya» Toshkent.: Adolat 1996 yil 73-bet

<sup>8</sup> Amir Temur hamda Fransiya qiroli haqidagi maktublar nima haqda edi. Xalq so’zi 2018 yil 10-oktyabr

Sohibqironning Fransiya qiroliga yozgan, bizning davrimizgacha lotin tarjimasi yetib kelgan ikkinchi maktubi ham 1402 yil 1 avgust sanasi bilan belgilangan. Har ikkala maktub arxiyepiskop Ioann III tomonidan Fransiya qiroliga yetkazilgan. 1403 yil iyunda Parijga yetib borgan arxiyepiskop Amir Temurning Fransiya qiroliga qiziqtiruvchi taklifini bayon etdi. Unda ikki davlat savdogarlarining erkin savdo munosabatlarini ta'minlash va savdo erkinligini tegishli bitim orqali kuchga kiritish o'z ifodasini topgandi<sup>9</sup>. Bundan Sohibqiron Amir Temur ham Fransiya bilan savdo aloqalarini tiklashdan manfaatdor ekanligi ko'rindi. Amir Temurning o'zaro hamkorlik to'g'risidagi tashabbusi Fransiya qiroli tomonidan mammuniyat bilan qabul qilinishi, 1403 yil 15 iyunda Karl VI ning Sohibqiron nomiga yo'llagan maktubida o'z aksini topadi. «Yaratganning marhamati bilan franklar qiroli Karl muhtaram hazrat va muzaffar podshoh Temurbekka salom yo'llaydi va tinchilik tilaydi» so'zları bilan boshlanadigan mazkur maktubda Fransiya bilan Amir Temur davlati o'rtasida savdi aloqalarini o'rnatish masalasiga katta e'tibor qaratadi va shunday so'zlar bilan yakunlaydi «Biz sizning ishlaringizni, foydali taklifingizni qabul qilamiz, imkon bor joylarda (ularga) barobar va undan ortiqroq iltifot ko'rsatishga vada beramiz»<sup>10</sup>.

Bu davrda Amir Temur olib borgan diplomatik munosabatlarida g`arbiy viloyatlar hokimi Mironshoh faol qatnashdi. Shimoliy Eron, Iraq, Tabriz va Sultoniyani o'z ichiga olgan mulklar hokimi Mironshoh Amir Temurning keksayib qolgan davrida g`arbiy Yevropa hukmdorlarining diqqat-e'tiborini o'ziga jalb etadi. Bu davrda u Yevropa davlatlari bilan o'zaro savdo aloqalarini jonlantirish maqsadida xristian ruhoniylariga xayrixohlik bildirib, savdogarlarning daxlsizligini ta'minlash borasida chora-tadbirlarni amalga oshirdi. Shu sababli g`arbda Mironshoh tez orada katolik dinining homiysi sifatida shuhrat qozondi.

Ular yozishmalarining bir qismi Fransiya hujjat arxivida saqlanadi. Mazkur maktublarda Amir Temur qirolning Sharqqa nisbatan siyosatini qo'llab-quvvatlagan holda, o'z davlati bilan Fransiya o'rtasida savdo-sotiq yo'lga qo'yilishining ahamiyatiga e'tibor qaratadi: “Bizning u ulug‘ amirdan kutganimiz shuldurki, doimo bizga shohona maktublarni yuborib, salomatliklarini bildirib tursalar, toki biz xotirjam bo'lgaymiz. Yana sizning savdogarlaringiz bu tarafga qatnab tursalar, biz bu yerda ularni azizu mukarram tutg‘umizdir, shuningdek, bizning savdogarlar u tarafga yuborilsa, siz ham ularni azizu mukarram tutsangiz, hech kimsa ularga zo'rlik qilmasa va zarar-zahmat yetkazmasa! Chunki dunyo savdogarlar bilan oboddir!”.

Amir Temur ham, Karl VI ham o'zaro do'stlik va birdamlikdan hamda savdo bitimi tuzishdan manfaatdor bo'lishganini mazkur maktublardan anglash mumkin. Akademik Akmal Saidov va Lyusyen Keren hammuallifligidagi “Amir Temur va

<sup>9</sup> Amir Temur hamda Fransiya qiroli haqidagi maktublar nima haqda edi. Xalq so'zi 2018 yil 10-oktyabr

<sup>10</sup> Amir Temur hamda Fransiya qiroli haqidagi maktublar nima haqida edi. Xalq so'zi 2018 yil 10-oktyabr

Fransiya” nomli asarda Vensan Frunyoning Amir Temur haqidagi ushbu fikri qayd etilgan: “Amir Temur mavzusi G‘arbiy Yevropada Klavixo va Jenkinson safarnomalari e’lon qilinmasdan burun, shuningdek, Ibn Arabshoh, Sharafiddin Ali Yazdiy singari tarixchilarning asarlari tarjima qilinmasdan oldin tarixiy va adabiy mavzu sifatida mavjud bo‘lgan”.

Buyuk geografik kashfiyotlarning amalga oshirilishi natijasida Buyuk Ipak yo’lining dunyo iqtisodiy va madaniy jihatdan xalqlarning aloqalarini olib boradigan yo’l sifatidagi ahamiyati yo’qoladi. Aynan shu davr va undan keyingi davrlarda har ikki xalq o’rtasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalarida uzulish ro’y beradi. Xonliklar davrida ikki xalq o’rtasidagi aloqalar boshqa mamlakatlar vositachiligidagi faol tarzada bo’lmasa ham ma’lum miqdorda asosan fan va adabiyot sohalarida saqlanib qoldi, ammo to’g’ridan to’g’ri aloqalar olib borilganligi haqida ma’lumotlar bizgacha yetib kelmagan. O’rta Osiyo xonliklarining (Buxoro amirligi, Xiva xonligi hamda Turkiston) Chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi munosabati bilan jahon xalqlari bilan hamkorlik aloqalarini olib borish sub’yekti sifatidagi huquqi olib qo’yildi. Davlatlar bilan aloqaga kirishishiga yo’l qo’yilmadi. Yo’l qo’yilgan taqdirda ham mustamlakachi kuchlarning maffaatiga mos bo’lgan, ularning siyosatiga qarshi bo’lman Hollarda ba’zi masalalarda ruxsat berilgan.

Sobiq sovet davlati hukmronligi paytida ham tashqi siyosat Markaziy Osiyo davlatlari uchun mutlaqo yopiq holda kechdi. Bu davrda ya’ni Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davri (1965-1917 yillar) hamda Sobiq sovet rejimi davrida (1917-1991 yillar) o’zbek va fransuz xalqlari munosabatlari uzulib qoldi. Madaniy aloqalar uzulgan bo’lsa ham fransuz olimlarining bizning madaniyatimizga qiziqishlari yuqori edi. Sho’rolar davrida siyosat va iqtisodiyot sohalari bilan bir qatorda ilm-fan va madaniyat jabhalarida ham biz “temir parda” ortida kun ko’rishga mahkum etilgan, Amir Temur to’g’risida iliq so’z aytish ayb, hatto jinoyat hisoblangan bir paytda, ya’ni 1987 yil 22 martda Parijda «Temuriylar davri tarixi va san’atini o’rganish va fransuz-o’zbek madaniy hamkorligi» uyushmasi tuzuldi. Bu uyushmaning asoschilari L. Keren va doimo o’zbekona liboslar kiyib yuradigan Frederik Bopartyus-Bressan xonimdir. Uyushma Temuriylar davri tarixi va madaniyatini o’rganish maqsadida tuzilgan jahondagi ilk tashkilotdir<sup>11</sup>.

O’zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo’lga kiritilganidan so’ng xalqaro munsabatlarga alohida e’tibor qaratildi. Shu qatorda mustaqilligimizning dastlabgi yillarida Fransiya bilan diplomatik aloqalarning o’rnatalishi ham tarixiy ahamiyat kasb etadi.

1992-yil 1 mart kuni Toshkent shahrida Fransiya Respublikasi va O’zbekiston Respublikasi o’rtasida diplomatik munosabatlar o’rnatalish to’g’risida bayonnomaning

<sup>11</sup> L.Karen, A.Saidov «Amir Temur va Fransiya» Toshkent.: Adolat 1996 yil 32-bet

imzolanishi mustaqil O'zbekiston va Fransiyaning ko'p asrlik munosabatlarini yangi bosqichga ko'tardi deyilsa mubolag'a bo'lmaydi. Fransiya Respublikasi va O'zbekiston Respublikasi o'rtaida do'stlik va hamkorlik to`g`risida Sharthonamaning imzolanishi (1993-yil 27 oktabr) esa ikkala mamlakatning kelajakdagi barqaror hamkorligini taraqqiyoti uchun muhim zamin yaratdi.

Diplomatik munosabatlar o'rnatilgandan so'ng ikkala davlat raxbarlari hamda davlat arboblarining tashriflari o'zaro sherikchilik va hamkorlikni rivojlantirish uchun amalga oshirilgan. Quyida Fransiya Respublikasi hamda O'zbekiston Respublikalari tomonidan amalga oshirilgan davlat tashriflari beriladi:

### **Fransiya davlat arboblarining O'zbekistonga tashriflari**

- **Iyul 2010-yil:** Xonim Idrak, Tashqi savdo bo'yicha Davlat kotibi
- **Iyun 2009-yil:** Janob P'yer Lellush, Afg'oniston va Pokiston bo'yicha maxsus vazil
- **Aprel 2005-yil:** Janob Emeri de Montesk'u, Fransiya va Markaziy Osiyo munosabatlarini rivojlanishiga ko'maklashish uchun Bosh vazir vakili
- **Oktabr 2003-yil:** Janob Sharas va Janob For, senatorlar
- **Iyun 2003-yil:** Xonim Allio-Mari, Mudofaa vaziri
- **May 2003-yil:** Janob Loos, Tashqi savdo vazil-vaziri
- **Noyabr 2002-yil:** Janob Myuzel'ye, Tashqi ishlar bo'yicha davlat kotibi
- **Noyabr 2001-yil:** Janob Joslen, Hamkorlik va Frankofoniya vaziri
- **Aprel 2001-yil:** Janob de Vil'pen, senator, Tashqi ishlar, mudofaa va harbiy havo kuchlari bo'yicha Komissiya Raisi va senatorlar delegatsiyasi
- **2-6 oktabr 2000-yil:** Senator Tryusi boshchiligidagi "Fransiya-Markaziy Osiyo" do'stlik guruhi senatorlar delegatsiyasi
- **19-24 iyul 2000-yil:** Janob Barro, deputat (Milliy Assambleya qoshidagi Moliya, umumiy iqtisod va rejalar Komissiyasi)
- **8-9 iyul 2000-yil:** Janob Rishar, Mudofaa vaziri
- **Iyun 1999-yil:** Janob P'yerre, sanoat bo'yicha davlat kotibi
- **Sentabr 1996-yil:** Janob P'er Joks, Mudofaa vaziri
- **Aprel 1996-yil:** "Fransiya-Markaziy Osiyo" do'stlik guruhi senatorlar delegatsiyasi
- **Aprel 1994-yil:** Prezident Fransua Mitteran
- **Mart 1992-yil:** Janob Viv'yen, Tashqi ishlar bo'yicha davlat kotibi

### **O'zbekiston davlat arboblarining Fransiyaga tashriflari**

- **Oktyabr 2018-yil:** Prezident Shavkat Mirziyoyevning Fransiyaga tashrifi
- **Mart 2007-yil:** Janob Ganiyev, Bosh vazir o'rinosari, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vaziri
- **Mart 2006-yil:** Janob Mustafoev, Tashqi ishlar vaziri o'rinosari (Fransiya-O'zbekiston siyosiy maslahatlashuvlar)

- ▶ **Yanvar 2004-yil:** Janob Ganiyev, Bosh vazir o`rinbosari, Tashqi iqtisodiy aloqalar agentligi raisi
- ▶ **May 2003-yil:** Janob Parpiyev, Bojxona qo`mitasi raisi
- ▶ **Yanvar 2001-yil:** Janob G`ulomov, Mudofaa vaziri
- ▶ **Iyun 2000-yil:** Janob Sultonov, Bosh vazir ("O`zbekistonda savdo qilmoq va investitsiyalar kiritmoq" mavzusiga bag`ishlangan Senat-CFCE kollokviumi)
- ▶ **Dekabr 1998-yil:** Janob Tursunov, Mudofaa vaziri
- ▶ **Aprel 1998-yil:** Janob Komilov, Tashqi ishlar vaziri
- ▶ **Aprel 1996-yil:** Prezident Islom Karimov Parijda (UNESCO da O`zbekiston xafitaligi)
- ▶ **Oktabr 1993-yil:** Prezident Islom Karimovning Parijga tashrifi

Yuqorida sanab o'tilgan davlat tashrilari davlat raxbarlari va ma'lum soha amaldorlari tomonidan amalga oshirilgанини ko'rishimiz mumkin. Bu tashriflar o'z navbatida tomonlarning qator soharani rivojlantirish uchun muhim kelishuvlarni yuzaga keltirganligini ta'kidlab o'tish joizdir.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, O'zbekiston va Fransiya o'rtasidagi aloqalarning tamal toshi uzoq o'tmishga, buyuk bobomiz Amir Temir va Temiriylar davriga borib taqaladi. Aynan shu davrlarda boshlab ikki xalq o'rtasidagi munosabatlarning jonlanishi orqali ijtimoiy, siyosiy va madaniy sohalarda fransuz va o'zbek xalqlari taraqqiyotiga sezilarli hissa qo'shgan.

Amir Temurning Sharq va G'arb xalqlarini madaniy jihatdan yuksaltirishdagi o'rni haqida L. Keren shunday «Temurbek jahon tarixida oldingi o'rirlardan birini egallaydi. U o'z daridagi jamiyatni yangilagan va unga yangi yo'nalishlar bag'ishlagan. O'rta asrni yakunlab, uyg'onish davrini boshlab bergen... Farovonlik keltirgan savdo yo'llariga ravnaq bergen, Markaziy Osiya va O'rta Sharq xalqlari madaniyatining yuksalishi uchun barcha zarur sharoitlarni yaratgan, o'z o'g'illari va nabiralariga ilg'or ma'lumot berganki, bularning hammasi san'at va fan ravnaqini ta'minlagan. O'z sultanati poytaxtida tinchlik va xavfsizlikni barqaroro qilgan, olim va san'atkorlarni oldingi safga olib chiqqan. Har tomonlama go'zallilikga, xudoga ishonchini ifodalab, ko'kka intilgan yodgorliklarni bunyod qildirgan<sup>12</sup>».

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo'lga kiritilganidan so'ng xalqaro munosabatlarga alohida e'tibor qaratildi. Shu qatorda mustaqilligimizning dastlabgi yillarida Fransiya bilan diplomatik aloqalarning o'rnatilishi ham tarixiy aloqalarimizning mantiqiy davomi bo'di. Ikkala davlat raxbarlari va davlat amaldorlarining tashriflari esa aloqalarni yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

<sup>12</sup> L.Karen, A.Saidov «Amir Temur va Fransiya» Toshkent.: Adolat 1996 yil 85-bet

Bundan ko'rinib turadiki, O'zbekiston Respublikasi uchun Fransiya Yevropadagi eng ishonchli sherigi hisoblansa Fransiya esa O'zbekistonni Markaziy Osiyodagi asosiy hamkor sifatida qaraydi.

